




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

19 noyabr, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (yanvar 2025 yildan 19 yanvar 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,4% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,317% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,317% – 6,498% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,421% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 9,349% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,269% – 9,514% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,06% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,013% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,013-6,219% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,341% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,298% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,296-6,401% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,593% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,479% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,479-6,717% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,64-3,75% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,64% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz ko'tarilib, 3,66% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,033% (3 oylik) va 2,143% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,46% (6 oylik) va 2,034% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 746,8 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 575,6 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 099 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 962 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya 0,35% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




19.01.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs B TBC bankda qayd etilgan – 11 963 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 075 – 12 110 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs InfinBank da qayd etilgan – 11 970 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 960 – 11 905 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



Dollar kursining rublga nisbatan qisqa muddatli pasayishi

2026-yil 12–16-yanvar kunlari oralig'ida USD/RUB kursi barqaror pasayish tendensiyasini namoyon etdi. Agar 12-yanvar kuni dollar kursi 79,3 rubl darajasida savdolanagan bo'lsa, 16-yanvarga kelib uning qiymati 78,6 rublgacha tushdi. Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan davrda dollar kursi 0,7 rublga pasaydi.

Kurs dinamikasi silliq xarakterga ega bo'lib, past volatillik bilan kechdi. Bu holat bozorda keskin tebranishlar va spekulyativ faollik yo'qligidan dalolat beradi. Mazkur davr davomida bozor nisbatan muvozanat holatida bo'ldi.

Shakllangan dinamika valyuta bozorining barqarorlashuvi fonida rublning qisqa muddatli mustahkamlanganini ko'rsatadi.



Rublning yuanga nisbatan kursi barqaror saqlanmoqda

2026-yil 12–16-yanvar kunlari oralig'ida Rossiya rubli kursi Xitoy yuanga nisbatan nisbatan barqaror bo'lib qoldi. Xususan, 12–14-yanvar kunlari kurs 1 yuan uchun 11,0 rubl darajasida saqlanib turdi, 15-yanvar kuni esa 10,9 rublgacha biroz pasayish kuzatildi va bu ko'rsatkich 16-yanvar kuni ham qayd etildi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bunday tebranishlar bozor uchun xos bo'lgan normal volatillik doirasida bo'lib, valyuta bozorida keskin o'zgarishlar mavjudligidan dalolat bermaydi.




Yevroning AQSh dollariga nisbatan kursi bosqichma-bosqich pasaymoqda

2026-yil 12–16-yanvar kunlari oralig'ida yevroning AQSh dollariga nisbatan kursi mo'tadil pasayishni namoyon etdi. Xususan, 12-yanvar kuni yevro 1,1698 AQSh dollari darajasida savdolanagan bo'lsa, 16-yanvarga kelib kurs 1 yevro uchun 1,1627 AQSh dollarigacha pasaydi. Ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida kotirovkalarining bosqichma-bosqich va silliq pasayishi qayd etildi: 13-yanvar — 1,1677, 14-yanvar — 1,1661, 15-yanvar — 1,1647.


Mazkur o'zgarishlar valyuta bozorida mo'tadil volatillik mavjudligini aks ettiradi hamda joriy iqtisodiy ma'lumotlar va tashqi iqtisodiy omillar fonida yevro va AQSh dollariga bo'lgan talabdagi tebranishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi (bir untsiya uchun, AQSH dollarida)



Brent nefti narxlari dinamikasi (bir barrel uchun, AQSH dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi (megavatt-soat uchun, AQSH dollarida)



Oltin va kumush narxlari tarixiy eng yuqori darajalarga ko'tarildi



AQSH prezidenti Trampning Grenlandiya masalasi sababli sakkizta Yevropa davlatiga nisbatan yangi 10 foizlik bojlar joriy etilishi haqidagi bayonotlaridan so'ng oltin va kumush narxlari keskin oshdi. Oltin narxi 4594,8 dollar darajasigacha ko'tarildi.

Tahlilchilarning ta'kidlashicha, narxlarning o'sishiga asosiy omil — oltinning himoya (xavfsiz) aktiv sifatidagi talabining kuchayishidir. Mojarolar, urushlar va iqtisodiy inqirozlar davrida investorlar an'anaviy ravishda xavfsiz aktivlarga o'tadi. Avvallari bunday rolni dollarli instrumentlar va rivojlanayotgan bozorlar bajargan bo'lsa, hozirgi vaqtda xavotir manbai sifatida AQShning o'zi maydonga chiqmoqda.

Brent markali neft narxi bir barrel uchun 64,13 dollardan oshdi



2026-yil 12–16-yanvar kunlari oralig'ida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 63–67 dollar diapazonida tebrandi. 12-yanvar kuni narx 63,87 dollarni tashkil etdi, 13-yanvar kuni u 65,47 dollargacha oshdi, 14-yanvarda esa haftadagi eng yuqori darajaga — 66,52 dollargacha yetdi.

Shundan so'ng, 15-yanvar kuni neft narxi 63,76 dollargacha pasaydi, 16-yanvar holatiga ko'ra esa bir barrel uchun 64,13 dollarni tashkil etdi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bunday tebranishlar odatiy bozor volatilligi doirasida bo'lib, jahon neft bozorida talab va taklifdagi joriy o'zgarishlarni aks ettiradi.

TTF gaz narxlari o'sishda davom etmoqda



2026-yil 12–16-yanvar kunlari oralig'ida Yevropa bozorida TTF gaz narxlari barqaror o'sishni namoyon etdi. 12-yanvar kuni narx bir megavatt-soat uchun 35,4 dollarni tashkil etdi, 13-yanvar — 36,7 dollar, 14-yanvar — 37,3 dollar, 15-yanvar — 38,9 dollar, 16-yanvarda esa bir megavatt-soat uchun 44,2 dollargacha yetdi.

TTF gaz narxlarining dollar ifodasida keskin oshishi Yevropa bozorida gaz tanqisligi saqlanib qolayotganidan, shuningdek, geosiyosiy va yetkazib berish bilan bog'liq noaniqliklarning kuchayib borayotganidan darak beradi. Bu omillar energiya resurslari narxlariga bosimni davom ettirmoqda.

Yangiliklar

Turkiya banklaridagi depozitlar keskin oshdi

2025-yilda Turkiya bank tizimidagi omonatlar hajmi 41 foizga oshib, qariyb 26,85 trillion lira (taxminan 678 mlrd AQSh dollari)ga yetdi. Bu holat yuqori foiz stavkalari sharoitida aholi tomonidan bank jamg'armalariga bo'lgan qiziqish kuchli ekanini aks ettiradi.



Rossiya banklari omonatlar bo'yicha stavkalarni pasaytirmoqda

Yanvar o'rtalarida Rossiyaning yirik banklari depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini pasaytirishni boshladi. Bu holat pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar hamda aholi mablag'lari uchun raqobatning kuchayib borayotganini aks ettiradi. Sberbank, VTB va Alfa-Bank kabi banklarda yanvar oyida omonatlar bo'yicha stavkalar pasaytirildi.



Raisin Bank "stavkalar urushi"ni olib bormoqda: Germaniyada depozit stavkalari 4,25 % gacha oshmoqda

Raisin Bank hamda boshqa Germaniya kredit tashkilotlari jamg'arma mahsulotlari bo'yicha foiz stavkalarini 3,0–4,25 % gacha oshirmoqda. Bu holat omonatchilar uchun keskin raqobat kuchayganini hamda aholi uchun jozibador shartlar shakllanayotganini anglatadi.



YeMB Basel 3 qoidalarini muvozanatli joriy etishga chaqirmoqda

Yevropa Markaziy banki (YeMB) vitse-prezidenti Luis de Gindosning ta'kidlashicha, global bank qoidalari — Basel 3 —ni Yevropa Ittifoqida joriy etishda AQShdagi vaziyatni ham inobatga olish muhim. Bu yondashuv Yevropa banklarining raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun zarur hisoblanadi.

Mazkur bayonot Yevropada banklarni tartibga solish sohasidagi muhim yangiliklardan biri bo'lib, u Italiya, Germaniya hamda yevrozonaning boshqa mamlakatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

